TOSHKENT SHAHRI YAKKASAROY TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 31-iyul | 169-14-207-Q/25 | Yakkasaroy tumani hokimligi

Toshkent shahar hokimining 2025-yil 17-iyundagi 542-14-0-Q25-son qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Chaqiriluvchilarni tanlab olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2025-yil 7-iyuldagi 413-son hamda Toshkent shahar hokimining 2025-yil 25-iyuldagi 542-14-0-Q/25-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Chaqiriluvchilarni tanlab olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2025-yil 7-iyuldagi 413-son hamda Toshkent shahar hokimining 2025-yil 25-iyuldagi 542-14-0-Q/25-son qarorlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-iyuldagi 413-son qaroriga muvofiq:

Chaqiriluvchilarni tanlab olish tartibi to‘g‘risidagi nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom) tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari (O.Rixsiboyev) tuman Mudofaa ishlari bo‘limi (T.Yeshmetov) bilan birgalikda:

chaqiriluvchilarning harbiy xizmatni o‘tashga tayyorligini baholash bo‘yicha tuman tanlov kengashini tuzsin;

chaqiriluvchilarni tanlab olish maqsadida ularning harbiy xizmatini o‘tashga tayyorligini baholash tadbirlarini tashkil qilsin;

chaqiriluvchilarning umumjismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tadbirlari o‘tkaziladigan joylarni belgilasin;

tanlov kengashi ushbu Nizomda nazarda tutilgan tadbirlarning o‘z vaqtida to‘liq amalga oshirilishi uchun shaxsiy mas’uliyat belgilanganligini inobatga olsin.

4. Yakkasaroy tumanidagi chaqiriluvchilarning harbiy xizmatni o‘tashga tayyorligini baholash bo‘yicha tanlov kengashi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman Tibbiyot birlashmasi (S.Mavlonov):

chaqiriluvchilarni o‘z vaqtida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, tibbiy tekshiruvlarning xolisligini ta’minlash hamda tuman tibbiy komissiyasining samarali ishlashini doimiy nazoratga olsin;

chaqiriluvchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tadbirlariga malakali, oliy va birinchi toifali shifokor-mutaxassislarni jalb etilishini ta’minlasin;

dastlabki tibbiy ko‘rik jarayonida kasalligi aniqlangan chaqiriluvchilarni o‘z vaqtida davolash va tekshirish ishlarini amalga oshirsin;

tanlovni o‘tkazish jarayonida tez tibbiy yordam ko‘rsatish uchun tibbiyot xodimlari jalb etilishi choralarini ko‘rsin.

6. Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi (T.Yeshmetov) hamda Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (A.Boltaboyev):

mahalla yoshlar yetakchilari bilan hamkorlikda tumandagi mavjud chaqiruv resurslarini “mahallabay” tizimida o‘rganish, muddatli harbiy xizmatga munosib nomzodlarni tanlab olish ishlarini tashkil etsin;

joylarda tanlab olish tadbirlarni o‘z vaqtida o‘tkazilishi bo‘yicha nazoratni o‘rnatsin;

tanlov yakunlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimligiga axborot kiritsin.

7. Tuman Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Murodov):

tanlovni o‘tkazish jarayonida zarur hollarda jamoat tartibini saqlash uchun ichki ishlar organlari xodimlari jalb etilishini tashkil qilsin hamda chaqiriluvchilarni tanlov tadbirlarida to‘liq ishtirokini ta’minlashda tuman Mudofaa ishlari bo‘limiga amaliy yordam ko‘rsatsin.

8. Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi (T.Yeshmetov) hamda tuman hokimligi Matbuot kotibi (O.Nasimov):

tumanda o‘tkazilayotgan tanlov tadbirlari to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borilishini ta’minlasin.

9. Yakkasaroy tumani hokimining ayrim qarorlari 2-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari O.Rixsiboyev va Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi T.Yeshmetov zimmalariga yuklansin.

Tuman hokimi **N.A. Allabergenova**

Yakkasaroy tumani hokimining
2025-yil 31-iyuldagi
169-14-207-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Yakkasaroy tumanidagi chaqiriluvchilarning harbiy xizmatni o‘tashga tayyorligini baholash bo‘yicha tanlov kengashi

T/r	F.I.O		Lavozimi
1.	Lavozimga ko‘ra	-	O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi boshlig‘i, Tanlov kengashi raisi
2.	T.Yeshmetov	-	Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi Chaqiruv bo‘linmasi boshlig‘i
3.	A.Boltaboyev	-	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i
4.	B.Norqulov	-	100-sonli umumta’lim maktabi jismoniy tayyorgarlik fani o‘qituvchisi
5.	U.Sharifxo‘jayev	-	100-sonli umumta’lim maktabi chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchisi
6.		-	Chaqiriluvchilarning ota-onalari orasidan vakillar

Yakkasaroy tumani hokimining
2025-yil 31-iyuldagi
169-14-207-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Yakkasaroy tumani hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari
RO‘YXATI

1. Yakkasaroy tumani hokimining “Toshkent shahar hokimining 2019-yil 13-apreldagi 537-sonli qarori ijrosi haqida” 2019-yil 25-apreldagi 506-son qarori.

2. Yakkasaroy tumani hokimining “Toshkent shahar hokimining 2024-yil 10-iyuldagi 442-14-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida” 2024-yil 20-iyuldagi 159-14-207-Q/24-son qarori.